

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING BADIY ASARNI IDROK ETISHDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yashinova Shahzoda

Nizomiy nomidagi TDPU

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev,

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish
metodikasi kafedrası professori v.b. filologiya fanlari nomzodi

m.a.hamrayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining badiiy asarlar qahramonlari ruhiy holatlarini tushunishlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan

Kalit so‘zlar: *O‘quvchilarning idroki, tafakkur va notiqlik san‘ati, adabiy til normalari, badiiy asarlar.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена освещению особенностей понимания учащимися начальных классов психологических состояний героев художественных произведений.

Ключевые слова: *Искусство восприятия, мышления и речи учащихся, нормы литературного языка, художественные произведения.*

ANNOTATION

This article is devoted to highlighting the peculiarities of primary school students' understanding of the mental states of characters in works of art.

KEY WORDS: *The art of perception, thinking and speech of students, norms of literary language, works of art.*

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asar idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqealikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat

2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalardan foydalaniladi. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralanadigan bo'ladi albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. Qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ulardan so'z boyliklari yetishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

Asardagi qahramonlarning xakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda asar qahramonlarning axloqiy sifatlari ustida ko'proq ishlash lozim.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuru va nutqini o‘stirish vositalaridan biridir.

Tanlab hikoyalashda o‘quvchi:

1) o‘qigan matndan bir qismini, uning chegarasini o‘ngli ravishda ajratib so‘zlab beradi;

2) hikoyadan faqat bir voqeani so‘zlab beradi;

3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo‘nalishida so‘zlab beradi;

Bu usullar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, ongini shakkantirish uchun samarali foyda beradi. Tafakkurini o‘stiradi.

Tafakkur - nutq bilan chambarchas bo‘g‘liq ,muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Tafakkur voqelikni analiz va sentiz qilish uni bevosita va umumlashtirib aks ettirishdan iborat jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan paydo bo‘ladi va hissiy bilish chegarasidagi ancha tashqariga chiqib ketadi.

Fikrlash - odamlarning qanday fikr yuritishini o‘rganish bo‘lib, ko‘pincha odamlar muammolarni qanday hal qilishlari va qarorlar qabul qilishlari haqida ma’lumot berish uchun xulosalar chiqarish jarayoni sifatida ta’riflanadi.

O‘qigan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik usul hisoblanadi.

Analitik usul bu - „grekcha " grek tilidan olingan bo‘lib -, „analytikos", ya’ni „tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lish " yoki „elementlar yoki prinsiplarga bo‘lish" degan ma’nolarni anglatadi.

Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni bolalar hikoya qismlarga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligini haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sayfullayeva R.va boshqalar .Hozirgi o‘zbek adabiyot tili. Darslik .-Toshkent, 2009.
- 2.A.G‘ulomov, M.Qodirov,M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimjonova „Ona tili o‘qitish metodikasi’’ kitobidan 81-82-bet
- 3.P.I Ivanov , M.E.Zufarova „Umumiy psixologiya’’kitobidan 10-bet.